

ARAB TILIDA CEFR MEZONLARI ASOSIDA YARATILGAN A1 DARAJADAGI O`QUV DASTURLARIGA QO`YILADIGAN TALABLAR

Zafar Abdumuminovich Norboyev

Samarqand davlat chet tillar instituti o`qituvchisi

ANNOTATSIYA

Arab tilini o`qitish yoki o`rganishni zamonaviy uslubda yaratilgan o`quv adabiyotlari asosida olib borish bugungi xorijiy tillar metodologiyasida o`z isbotini topib bo`ldi. So`ngi yillarda CEFR mezonlari asosida yaratilgan o`quv dasturlari tilni o`qitish, o`rgatish va baholashda til o`rganuvchi va o`rgatuvchi uchun ham ijobiy natijalar bermoqda. Xorijiy tillarni o`qitish, o`rgatish va baholashda CEFRning har bir darajasiga qo`yilgan talablar mavjud. Bu maqola orqali biz CEFRning A1 darajasiga qo`yilgan talablar va ularning mazmuni bilan tanishtiramiz.

Kalit so`zlar: CEFR, eshitish ko`nikmasi, o`qish ko`nikmasi, yozish ko`nikmasi, gapirish ko`nikmasi, A1 *الأساسي*, A1 *التمهيدي*, B2 *فوق المتوسط*, B1 *المتوسط*, C2 *فوق المتقدم*, C1 *المتقدم*.

ABSTRACT

Teaching or learning the Arabic language on the basis of educational literature created in a modern style has been proven in today's methodology of foreign languages. In recent years, educational programs created on the basis of CEFR criteria have given positive results for language learners and teachers in language teaching, learning and evaluation. There are requirements for each level of CEFR in the teaching, learning and assessment of foreign languages. Through this article, we will introduce the requirements and their content for the A1 level of CEFR.

Keywords: CEFR, listening skills, reading skills, writing skills, speaking skills, A1 *الأساسي*, A1 *التمهيدي*, B2 *فوق المتوسط*, B1 *المتوسط*, C2 *فوق المتقدم*, C1 *المتقدم*.

KIRISH


Kommunikativ yondashuv talablari asosida Yevropada xorijiy tilni puxta o`rganish, o`rgatish va baholashda yagona tizim joriy qilish masalasida 1970-1980 yillarda ilk fikr va mulohazalar boshlangan edi. 1970-yillarning o`rtalarida Yevropaning "The Threshold Level" nashri orqali xorijiy tillarda kommunikativ yondashuv asosida til siyosatini olib borish fikri ilgari surildi. 1991-yilda Shvetsariyada o`tkazilgan hukumatlararo simpoziumida CEFRning ilk parametrlari muhokama etildi va bu

1996-yilda tillar bo'yicha umumiy Yevropa ma'lumotnomasi (CEFR - The Common European Framework of Reference for Languages) joriy qilinishi bo'yicha bir qarorga keldi va ikki loyiha ko'rinishida dastlabki versiyasi taqdim etildi. CEFR – ikkinchi tilni o'rganuvchilar uchun Yevropa bo'ylab til dasturlari, o'quv dasturlari, darslik va turli xil o'quv materiallarini yaratish, ko'rsatmalar berish va imtihonlarni o'tkazish bo'yicha ma'lumotnomadir. CEFRning dastlabki shakllari 1996-1998 yillarda sinovdan o'tkazildi va 2001 yili keng doiradagi potensial til foydalanuvchilari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar asosida Yevropa Kengashining ikki rasmiy tili (ingliz va fransuz)da qayta ko'rib chiqildi va Cambridge University Press nashriyoti tomonidan nashr etildi. 2006 yilning aprel oyiga kelib CEFR 21 ta alban, arman, bask, katalon, xorvat, chex, fin, friul, galisiya, gruzin, venger, italyan, yapon, maldova, polyak, portugal, rumin, rus, serb, ispan va ukrain tillariga tarjima qilindi. Hozirgi kunga kelib CEFR 40 tilga tarjima qilingan va CEFR mezonlari deyarli barcha tillarga kirib bordi desak mubolag'a bo'lmaydi. CEFR til ta'lim siyosatiga izchillik va oshkoralikni birinchilardan bo'lib olib kirdi. CEFRning joriy qilinishi Yevropa Kengashiga a'zo bo'lgan ko'plab davlatlarda va undan uzoqda bo'lgan davlatlarda xorijiy tilni ikkinchi til sifatida o'rganish va o'rgatish tizimiga darhol va sezilari ta'sir ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi paytda Yevropa Kengashi tomonidan CEFRni boshqa tillarga tarjima qilish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotimizning maqsadi arab tili ona tilisi bo'lmagan til o'rganuvchilariga arab tilini o'qitish va o'rgatishda CEFR mezonlaridan foydalanish ko'zda tutilgan. Arab tilini o'rgatish, o'qitish va baholash uzoq yillar an'anaviy standartlarga asoslangan holda amalga oshirildi. Oxirgi yigirma yilda arab tilini kommunikativ yondashuv asosida o'rgatish, o'qitish va baholash tizimlarini olib kirish bo'yicha ko'plab takliflar va mulohazalar bildirildi. Dunyoning turli burchaklarida arab tilini o'rganishmoqda va bu mintaqalardagi xalqlar o'zlarining madaniyatiga ega va har bir xalq o'z ona tilisida savod chiqaradi. Bu boshqa xorijiy tillarni o'rganishda turli xil qiyinchiliklar va muommolarni keltirib chiqaradi. Bu til o'rganuvchilardagi qobiliyat va malakalarining standartlashmaganligi, ularga berilayotgan o'quv materiallarining ma'lum nazorat va tekshiruv bosqichlaridan o'tkazilmaganligi, til o'rgatuvchilarning qobiliyatlarining zaifligi, baholash mezonlari aniq ishlab chiqilmaganligi va boshqa bir nechta sabablarni sanab o'tishimiz mumkin. Bu muommolarga yechim sifatida ko'plab mutaxassislar kommunikativ yondashuv asosida o'rgatish va o'rganish orqali yechim topish mumkinligini

ta`kidladi. Kommunikativ yondashuv tilni o`rganish va o`rgatishda CEFR darajalari va mezonlarini ilgari suradi. CEFRda xorijiy tillarni o`zlashtirishning oltita darajasini quyidagicha belgilaydi:



A1, A2 darajalari. Bu darajalar boshlang`ich foydalanuvchilar uchun belgilangan bosqichdir. (التمهيدي A1، الأساسي A2)

B1, B2 darajalari. Bu darajalar mustaqil foydalanuvchilar uchun mo`ljallangan. (المتوسط B1، فوق المتوسط B2)

C1, C2 darajalari. Bu darajalar tajribali, malakali va mutaxassislar uchun mo`ljallangan. (المتقدم C1، فوق المتقدم C2)

CEFRning har bir bosqichida arab tilini o`rganuvchilar tilning quyidagi ko`nikmalarini ketma-ketlikda uzviyligini buzmaganda olib borish maqsadga muvofiq.

1. Eshitish ko`nikmasi (مهارة الإستماع)
2. O`qish ko`nikmasi (مهارة القراءة)
3. Yozish ko`nikmasi (مهارة الكتابة)
4. Gapirish ko`nikmasi (مهارة الكلام)

Har bir darajada til o`rganuvchilar ma`lum umumiy qoidalar asosida bilishi kerak bo`lgan mezonlar mavjud. Bu maqolamizda CEFRda A1 darajasiga qo`yilgan asl talabalar va mezonlarning so`nggi yaratilgan o`quv materiallarida aks etishini tahlil qilamiz.



A1 daraja bu tilni bilishning eng past darajasi hisoblanadi. Biroq bu darajani egallamasdan turib yoki bu darajada berilgan mezonlarni egallamasdan turib, keying darajalarga kirishi juda murakkabdir. 1994-1995 yillardagi Shveysariya Milliy Ilmiy Tadqiqot Kengashining tadqiqotchilari A1 darajasidan oldingi daraja ham bor degan qarashni ilgari surdi. Unga ko`ra A1 darajasida til o`rganuvchi hali darajaga kirmasdan o`rganayotgan tili bo`yicha quyidagi oddiy vazifalarni amalga oshira olishi mumkin:


- imo-ishoralar yoki og'zaki ma'lumotni qo'llab-quvvatlaydigan oddiy xaridlarni amalga oshirishi;
- kun, vaqt va sanani so'rashi va aytishi;
- ba`zi bir asosiy salomlashishdan foydalana oladi;
- ha, yo'q, kechirasiz, iltimos, rahmat, kechirasiz deb ayta olishi;
- shaxsiy ma'lumotlar, ism, manzil, fuqarolik, oilaviy ahvol, qisqa, oddiy otkritka yoza olishi;

A1 va A1+ darajasida esa, til o`rganuvchi kunlik oddiy so`z birikma va iboralarni tushunishi va ulardan muloqotda qoniqarli darajada foydalana olishi kerak. Shuningdek, bu darajada o`rganuvchi quyidagilarni:

- o`zi ya`ni ismi, familyasi, yoshi, qayerda yashashi, qayerdan ekanligi va boshqa shaxsiy ma`lumotlar haqida qisqacha ma`lumot bera olishi;

- oilasi, qarindoshlari va do'stlari haqida soda ma'lumotlarni bilishi va oddiy savollarga javob bera olishi;
- kasb-hunar, ishxona va mehnat vazifalariga doir oddiy ma'lumotlarni bilishi;
- tez-tez ehtiyoj seziladigan narsa-buyumlar haqida oddiy so'zlar va iboralarni bilishi va savollarga javob berishi,
- uy-joy va yashashga oid oddiy mavzularga oid ma'lumotlarni tushunishi va shu mavzuda oddiy muloqotga kirisha olishi;
- boshqa odamlarni tanishtira olishi;
- nima bilan shug'ullanishi, nima qilayotganligi to'g'risidagi mavzularga tushuna olishi va savollarga javob bera olishi;
- o'zi yashaydigan joyini, shaharni yoki biron-bir manzil haqida oddiy so'z va iboralarni ishlata olishi;
- raqamlar, ranglar, hafta kunlari, oy nomlari, yillar bilan bog'liq leksik birliklarni ishlata olishi;
- telefon raqam va uy manzili bilan bog'liq muloqotni tushuna olishi va o'zi ham shu mavzular bo'yicha muloqot qila olishi;
- bozor, do'kon va xarid bilan bog'liq joylarda oddiy so'z va so'z birikmalarni bilishi, ishlata olishi va savollarga javob berishi;
- ovqatlanish, ichimlik ichish va restoranlarga oid oddiy so'zlarni bilishi va ishlata olishi;
- ob-havoga oddiy oid so'zlarni bilishi va ob-havoni soda uslubda tasvirlay olishi;
- turizmga oid oddiy so'zlarni bilishi, biron-bir joy haqida soda jumlar bilan muloqot qila olishi;
- maktab, o'rta maxsus bilim yurti va universitetga oid so'zlarni tushina olishi va savollarga javob bera olishi;

kundalik turmush tarzimizda duch keladigan oddiy jarayonlarga oid boshqa leksik birliklarni bilish, tushunish, muloqot qilganda tasvirlay olishi va savollarga javob bera olishi kerakligini nazarda tutadi. Yuqorida keltirilgan bandlarga oid A1 darajasida James Milton va Tomai Aleksioning fikriga ko'ra til o'rganuvchi 1500 ga yaqin so'z va so'z birikmalarini bilishi bu darajani puxta egallashiga xizmat qiladi. Bu so'zlar ichida 600 atrofidagisi aktiv 900 ga yaqini passiv holatdagi so'zlar bo'lishi mumkin. So'zlar quyidagi sohalarga oid oddiy so'zlar va so'z birikmalari bo'ladi:



XULOSA

Arab tilini o'rgatish va o'rganishda A1 التمهيدي darajasida salomlashish, tanishish, shaxsiy ma'lumotlar, oila, do'stlar, qarindoshlar, vazifalar, kasblar, uy, uy jihozlari, davlatlar, ularning poytaxtlari, raqamlar, ranglar, ichimliklar, oziq-ovqatlar, ob-havo, sayohat, vaqt ko'rsatgichlari, kunlik faol fe'llar va sifatlar, hafta kunlari, oy nomlari, maktab va universitetga oid so'zlar va oddiy so'z birikmalarini bilsa, o'zini fikrini qisqa bayon qilsa, savollar bersa, ma'lum sodda so'zlar orqali muloqot qilsa, biron-bir shu tilde so'zlovchi o'z nutqi davomida yuqorida keltirilgan mavzular bo'yicha ma'lum bir fikrni sekin ifodalasa va u tushunsa va uning fikriga javob qaytara olsa bu darajada yaxshi natijaga erishgan hisoblanadi.

REFERENCES

1. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment. Modern languages division. Strasbourg. 2001- p. 26-129.
2. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment: Structured overview of all CEFR scales. – p. 6-21.

3. Antonella Ghersetti, Andrea Facchin. TEACHING ARABIC AS A FOREIGN LANGUAGE: Origins, Developments and Current Directions. – p. 18-29.
4. Ayoob Y. Jadwat. Teaching of Arabic as a foreign language (TAFL): A study of the communicative approach in relation to Arabic. A thesis submitted for the degree of PhD. Bibliotheca universitates Andreane. 1987 y. - p. 361-379.

